

tasvirlanyapti, faqat farqi shundaki, bu she'rdagi qayg'u, kulfat bilan shodlik va baxt inson ruhiyatidagi qarama-qarshilik sifatida aks etadi. Tun uchun qayg'u, kulfat xarakterli bo'lsa, tong uchun shodlik va baxt yo'ldoshdir:

Bu tong otsin... QAYG'U uchadi,
Uchar, uchar – chekinar uzlat.
... Derazasin qat'iy chertadi,
Keldim, deydi, Men – SHODLIK,
MEN – BAXT!⁵

Azim Suyun murosasiz shoir. U she'rlarida oq-qora, yaxshi-yomon, qayg'u-shodlik kabi tushunchalar zidligida har doim ezgulik tomonda bo'lib, uning himoyasiga o'tlanadi, o'zining faol munosabatini bildiradi.

Shoirning "Chechak" she'rida ham xuddi shunday pozitsiya ustuvorligini kuzatamiz:

Ko'rdim: qoya ustida
Go'yo mitti kapalak,
Sabo belanchagida
Nozlanadi bir chechak.⁵

Mana shunday go'zal, nafis misralardagi manzara, kapalak – chechak obrazi kitobxonga ajib bir estetik zavq bag'ishlaydi, qalbini junbushga keltiradi. Lekin keyingi misralarda shoirning ijtimoiy pozitsiyasi qalqib chiqadi. Ya'ni shoir lirik qahramoni shu qoya ag'darilib

ketsa-yu kapalak uning ostida qolib ketsa nima bo'ladi, shu bilan kapalak o'ladimi, degan kechinmalarni xayolidan o'tkazadi-yu yana uning ziddi bo'lgan otashin va ko'tarinki pozitsiya tasvirlari chiziladi:

Yuragimdan bir nido
Otilib chiqdi shu choq:
– Qulayversin bu qoya,
Qulab tushsa-da, biroq,
Biroq uning ustida,
Go'yo mitti kapalak,
Sabo belanchagida
Nozlanadi bir chechak!⁶

Ko'rinib turibdiki, Azim Suyun tabiat shaydosi sifatida inson va tabiat munosabatlarining tasvirida tabiatning go'zal manzaralari bilan insonning tabiat qo'ynidagi faoliyati, ruhiy kechinmalarini bir-biriga monand tarzda tasvirlaydi. Shoirning bu tipdagi she'rlarining markazida, asosan, inson va uning mohiyati bosh maqsaddir. Insonning munosabatlari orqali tabiat go'zalliklari, u bilan uyg'unlashuv jarayonlari aks etadi. Bunda shoir turli badiiy unsurlar orqali tabiat unsurlarini borliqning fusunkor manzaralarini namoyon qiluvchi vositalarga aylantiradi.

¹A.Suyun. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. 47-bet.

²O'sha manba, 50-bet.

³O'sha manba, 385-bet.

⁴O'sha manba, 155-bet.

⁵O'sha manba, 155-bet.

⁶O'sha manba, 179-bet.

⁷A.Suyun. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. 179-bet.

Shahnoza RAHMONOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

MAKTAB DARSLIGIDA KELITIRILGAN ARUZ VAZNLARI TAHLILI

(8-sinf "Adabiyot" darsligi misolida)

Aruz vazni Sharq xalqlari adabiyoti, jumladan, o'zbek mumtoz va qisman hozirgi zamon adabiyotida qo'llanib kelinayotgan maxsus vazn tizimi. Bu Adabiyot darsliklarida ushbu vazn tahliliga bag'ishlangan qismlar mavjud. Jumladan, 8-sinf "Adabiyot" darsligida ham mumtoz adabiyotimiz namunalaridan berilgan bo'lib, ular aruz tizimining muta'qorib, ramal, hazaj, mujtassi¹ bahrlarida bitilgan. 8-sinf "Adabiyot" darsligida dastlab Yusuf Xos Hojibning aruz vaznida yozilgan "Qutadg'u bilig" dostoni keltiriladi. Ma'lumki bu asar turkiy she'riyatdagi ilk badiiy doston hisoblanadi. Doston aruz tizimining muta'qoribi musammani mahzof yoki maqsur (V -- V -- V -- V -- V -- yoki -- V ~) vaznida yozilgan. Mazkur vaznda yozilgan baytning bir misrasidagi birinchi,

ikkinchi, uchinchi ruknlar *faulun* (V --) aslining solimiga va oxirgi, ya'ni to'rtinchi rukn *faulun*ning mahzof tarmog'i *faal* (V --)ga teng. Ushbu o'lchov muta'qoribi musammani maqsurdan oxirgi, hijoning o'ta cho'ziqligi bilan farq qiladi. Quyida ikki vaznning taqte'sini keltiramiz:

1. Faulun – faulun – faulun – faal

V -- \ V -- \ V -- \ V --

2. Faulun – faulun – faulun – faul

V -- \ V -- \ V -- \ V ~

E	lig	ayt	di	em	di	a	yit	gu	so'	zim
V	-	-	V	-	-	V	-	-	V	-
Bu	yer	da	mu	ni	em	di	ay	tur	o'	zim
V	-	-	V	-	-	V	-	-	V	-

2

Mazmuni:
Elig aytdi: mening so'raydigan so'zlarim
Ushbular edi, endi shularni so'rayman.
Yoki:

Mu	ngar	meng	za	tu	ay	di	sha	ir	bu	so'z
V	-	-	V	-	-	V	-	-	V	~
Ko'	ru	bar	sa	ma'	ni	bi	lig	siz	lik	ko'z
V	-	-	V	-	-	V	-	-	V	~

Mazmuni:

Bunga o'xshatib shoir ushbu so'zlarni aytdi,

Ko'rsang, uning ma'nosi – bilimsizga bir ko'zdek gap [5; 54] tarzidagi shakl hosil bo'ladi. Keltirilgan jadvalda esa aruz vazniga xos bo'lgan xususiyatlar aks etgan. Dostondan berilgan parchalarda bo'g'inlar maxsus belgilar bilan ifodalangan. Aruz tizimida bu belgilar hiyo deb atalib, bir-biridan qisqa, cho'ziq, o'ta cho'ziqligi bilan farqlanadi. Diqqat qilinsa, har qaysi misrada 11 tadan bo'g'in bo'lib, ularning 7 tasi cho'ziq, 4 tasi esa qisqa, ana shu cho'ziq va qisqa hijolar misralarda ma'lum o'rinlarda kelayotganini ko'rish mumkin. Mazkur vaznda yozilgan she'rlar "Shashmaqom"ning "Buzruk", "Rost", "Dugoh", "Segoh" kabi kuylariga mos tushadi va o'ziga xos musiqiy ohangni ta'minlaydi. 8-sinf "Adabiyot" darsligida boshqa muta'qorib bahrida yozilgan g'azal berilmagan.

Ushbu darslikda hazaj bahrining hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf (yoki maqsur), hazaji musaddasi mahzuf vaznlari Lutfiy g'azallari misolida tahlil qilingan. Lutfiyning "Xoh inon, xoh inonma" radifli g'azali aruzning o'ynoqi, lekin o'quvchi uchun nisbatan murakkab tur-laridan biri bo'lmish hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf (yoki maqsur), ya'ni *maf'uvlu – mafoiyu – mafoiyu – faulun (yoki mafoiy)* vaznida bitilgan. "Taqt'e'si: -- V | V -- V | V -- V | V -- V (yoki V ~)" [5; 76].

*Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.*

Yuqorida keltirilgan baytning birinchi rukni – sadr va ibtido mafoiyulunning axrab ko'rinishi – maf'uvlu (– – V) rukniga, ikkinchi, uchinchi ruknlari – hashv – mafoiyulunning makfuf tarmog'i – mafoiyu (V – – V)ga, oxirgi ruknlar – aruz hamda zarb – esa mafoiyulunning mahzuf ko'rinishi – faulun (V – –)ga teng. Matla'dagi se-, -va, i-, i- hijolari qisqa, sen-, -sen, -rim, -non, -non, -ma hijolari cho'ziq, xoh hijolari esa o'ta cho'ziq hijolar sanaladi. Demak, bu hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf (– – V | V -- V | V -- V | V --) deb nomlanadi. Lutfiyning 430 ta she'ridan 61 tasi [3; 207] mazkur vazn mahsuli hisoblanadi.

Darslikda berilgan hazaj bahrining ikkinchi vazni hazaji musaddasi mahzuf o'lchovidir. Ushbu vazn ham Lutfiyning "Ayoqingg'a tushar har lahza gisu..." g'azali misolida tahlil qilinadi.

Mazkur vaznda Lutfiyning 326 g'azalidan 23 tasi yozilgan [3; 196]. Shuningdek, olti ruknli ushbu o'lchovda "Shashmaqom"ning "Soqiynomai savti navo", "Soqiynomai mo'g'ulcha navo", "Soqiynomai savti chorgoh" [3; 197] kuylari bastalangan.

Ushbu darslikdagi uchinchi bahr – "ramal" bahri she'riyatimizda juda keng qo'llangan o'lchov turi bo'lib,

"tuyaning lo'killashi" degan ma'noni anglatadi. Bu bahrning asosini esa foilotun aslining aynan takrori tashkil qiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Muxtasar" asarida: "Ramal bahri ellik to'qqiz vazn, o'ttiz bir musta'mal, yigirma sekkiz muxtara', o'n ikki vazn musta'mali matbu'", [1; 145] – deb ta'kidlab, 59 ta vaznning barchasiga misollar keltiradi. Adabiyotshunos U.Toirovning fikricha, ramalning shakllanishi, asosan, xalq og'zaki ijodi qo'shiqlari bilan bog'liq hodisa bo'lib, Hirot hukmdorlari davrida mazkur bahr alohida qo'shiq janri hisoblangan [9; 52]. Ma'lumki, aruz tizimida har bir bahr bir necha vaznlarni o'z ichiga oladi. Bu vaznlar bir bahrga mansubligidan qat'i nazar, o'ziga xos ohangga ega. 8-sinf "Adabiyot" darsligida ramal bahrining ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), ramali musammani maxbuni mahzuf vaznidagi g'azallardan keng foydalanilgan [5; 79, 102–125, 147–150].

Darslikda tahlil qilingan ramal bahri o'lchovlari orasida ramali musammani mahzuf (yoki maqsur) –V – –\–V – –\–V – –\–V – (yoki –V ~) vaznida yozilgan g'azallar ko'proq qismni tashkil etadi. Bu vazn "turkiy she'riyatda eng ko'p istifoda etilgan bo'lib, "Xazoyin ul-ma'noiy"dagi 2600 ta g'azaldan 1101 tasi ushbu o'lchovda bitilgan". [8; 26] 8-sinf "Adabiyot" darsligidagi mazkur vaznda yozilgan g'azallarning tahlili Alisher Navoiy hamda Nodira ijodi misolida keltirilgan.

Shuningdek, darslikda Mavlono Lutfiyning "Bu ko'nguldur, bu ko'ngul" radifli g'azali ham ramali musammani mahzuf vaznida, deb keltiriladi. Lutfiyning "Bu ko'nguldur, bu ko'ngul" radifli g'azalining vazni "ramali musammani mahzuf (maqsur), ya'ni foilotun – foilotun – foilotun – foilon (yoki foilon). Taqt'e'si: –V – –\–V – –\–V – (yoki –V ~)" [5; 79] tarzida berilgan. Lekin g'azal tahlil qilinganida "ramali musammani mahzuf (maqsur)" vazniga to'g'ri kelmasligi kuzatildi. Quyida darslikdagi va biz tahlil qilgan taqt'e'larni keltiramiz.

Darslikda [5; 79] (G'azal jadvalga o'zimiz tomonimizdan solingan):

Me	ni	shay	do	qi	la	dur	g'on	bu	ko'	ngul	dur	bu	ko'	ngul
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
Xor	u	ras	vo	qi	la	dur	g'on	bu	ko'	ngul	dur	bu	ko'	ngul
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-

Biz tahlil qilganda esa:

Me	ni	shay	do	qi	la	dur	g'on	bu	ko'	ngul	dur	bu	ko'	ngul
-	V	-	-	V	V	-	-	V	V	-	-	V	V	-
Xor	u	ras	vo	qi	la	dur	g'on	bu	ko'	ngul	dur	bu	ko'	ngul
-	V	-	-	V	V	-	-	V	V	-	-	V	V	-

G'azali misralarini vaznga moslab, hijolarga ajrat-sak, ulardagi -ni, qi-, -la, bu, ko'-, bu, ko'-, -u, qi-, -la, bu, ko'-, bu, ko'- hijolari qisqa, me-, shay-, -do, -dur, -g'on, -ngul, -dur, -ngul, xor-, ras-, -vo, -dur, -g'on, -ngul, -dur, -ngul hijolari esa cho'ziq ekanligi ma'lum bo'ladi. Shunga ko'ra Lutfiyning "Bu ko'nguldur, bu ko'ngul" radifli g'azali matla'si ramali musammani mahzuf vaznida emas, balki ramali musammani maxbuni mahzuf (–V – –\VV – –\VV – –\ VV –) o'lchovida yozilganligi

aniqlashadi. Shuningdek, g'azalning 6-baytining birinchi misrasi *ramali musammani maxbuni maqsur* (–V – –\VV – –\VV – –\VV ~) vaznida yaratilgan. Mazkur vazn yuqoridagi o'lchovdan oxirgi hijoning o'ta cho'ziqligi bilan farq qiladi. Quyida baytning matnini keltiramiz:

**Dushman-u do'st orasinda men g'ofilni mudom,
Besar-u po qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.**

Shuningdek, g'azal maqtasining birinchi bayti *ramali musammani maxbuni maqtu'* (–V – –\VV – –\VV – –\ –) vaznida bitilgan. **O'zgradin ko'rmaki ko'zung yoshini, ey Lutfiy,**

Ayni daryo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

G'azalda o'ta cho'ziq hijo uchramaydi:

Xuddi shunday holatni Alisher Navoiyning "Deyin" radifli g'azalida ham kuzatish mumkin. Mazkur g'azalning vazni ham ramali musammani mahzuf (maqsur), ya'ni *foilotun – foilotun – foilotun – foilun* (yoki foilon) da deb beriladi. Taqte'si: –V – –\V – –\V – –\V – –\V – (yoki –V ~) tarzida keltirilgan [5; 79]. Lekin biz Alisher Navoiyning "Deyin" radifli g'azalini tahlil qilganimizda darslikdagi she'r ramali musammani mahzuf (maqsur) vazniga to'g'ri kelmasligini kuzatdik. Quyida darslikdagi va biz tahlil qilgan taqte'larni keltiramiz.

Darslikda [5; 109] (g'azal jadvalga o'zimiz tomonimizdan solingan):

Qo	shi	yo	sin	mu	de	yin	ko'	zi	qa	ro	sin	mu	de	yin
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–
Ko'ng	lu	ma	har	bi	ri	ning	dar	du	ba	lo	sin	mu	de	yin
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–

Biz tahlil qilganda esa:

Qo	shi	yo	sin	mu	de	yin	ko'	zi	qa	ro	sin	mu	de	yin
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–
Ko'ng	lu	ma	har	bi	ri	ning	dar	du	ba	lo	sin	mu	de	yin
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–

Shu o'rinda bu g'azalning ham matla'sidagi hijolarni eslab o'tishni joiz deb topdik. Alisher Navoiyning "Deyin" radifli g'azali matla'si misralarini vaznga moslab, hijolarga ajratsak, ulardagi -shi, -mu, de-, -zi, qa-, -mu, de-, -lu, bi-, -ri, -du, ba-, -mu, de- hijolari qisqa, qo-, yo-, -sin, -yin, ko'-, -ro, -sin, -yin, ko'ng, -ma, har, -ning, dar-, -lo, -sin, -yin kabi hijolari esa cho'ziq ekanligi ma'lum bo'ladi. Shunga ko'ra Alisher Navoiyning "Deyin" radifli g'azali ham ramali musammani mahzuf vaznida emas,

balki ramali musammani solimi maxbuni mahzuf o'lchovida yozilganligi aniqlashadi. Mazkur vazn asosini esa foilotun aslining maxbun tarmog'i *failotun* (birinchi, ikkinchi, uchinchi ruknlarda) hamda maxbuni mahzuf tarmog'i *failun* (to'rtinchi ruknlarda) tashkil etadi. 8 ta cho'ziq va 7 ta qisqa hijoning juft-juft bo'lib takrorlana borishi sho'x, yengil, o'ynoqi, musiqabop ohang yaratadi [3; 127].

8-sinf "Adabiyot" darsligida keltirilgan so'nggi vazn mujtassi musammani maxbuni maqtu'dir. Mazkur vazn darslikda Alisher Navoiyning "Qilg'il" radifli g'azali orqali tahlil qilingan. "Qilg'il" radifli g'azal "mujtassi musammani maxbuni maqtu', ya'ni *mafoilon – failotun – mafoilon – fa'lun* vaznida bitilgan. Taqte'si quyidagicha bo'ladi: V – V –\V V – –\V – V –\ – –" [103]. Lekin bu vazn o'quvchi uchun murakkablik qiladi.

Zero, g'azal mujtassi musammani maxbuni maqtu' vazni talabiga mos ravishda o'qilishi va o'lchovga xos ohangni hosil qilishi lozim:

mafoilon	failotun	mafoilon	fa'lun
Qaro ko'zum	kel-u, mardum	lig' emdi fan	qilg'il,
Ko'zum qaro	sida mardum	kibi vatan	qilg'il,

"Qilg'il" radifli g'azal matla'sidagi "kel" so'zidagi "l" undoshini undan keyin turgan "u" hijosiga ulab, ya'ni vasl hosil qilib, "tu" tarzida talaffuz etish kerak bo'ladi. Shuningdek, "lig'" hijosi oxiridagi "g" undoshi undan keyin turgan hijoga qo'shilgan holda "g'em" tarzida o'qilishi lozim. Shunda matla'dagi qa-, ko'-, ke-, -lu, li-, -di, ko'-, qa-, si-, -da, ki, -va hijolari qisqa, -ro, -zum, mar-, -dum, -g'em, fan, qil-, -g'il, -zum, -ro, mar-, -dum, -bi, -tan, qil-, -g'il kabi hijolar cho'ziq hisoblanadi. "Alisher Navoiy ushbu vaznning ohang imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'zining 142 ta she'ri, jumladan, 119 ta g'azal, 16 ta qit'i, 5 fard va 2 chistonini uning asosida yaratgan edi [3; 73].

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, aruz maydonida qilinadigan ishlar talaygina. Olimlarimiz U.To'ychiyev, A.Hojjahmedov, G.To'ychiyeva, D.Yusupova, V.Qodirov, L.Sharipovalarning tadqiqotlari bu ishlarni yengillashtirishiga ishonamiz. Muxtasar qilib aytsak, darsliklardagi aruz bilan bog'liq qismlarni maktab, litsey, kollej, oliy ta'lim tarzida oddiydan murakkabga tomon qayta ko'rib chiqish hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur. Muxtasar (nashrga tayyorlovchi S.Hasan). – Toshkent, 1971.
2. A.Hojjahmedov. Maktabda aruz vaznini o'rgatish. – Toshkent, 1995.
3. A.Hojjahmedov. O'zbek aruzi lug'ati. – Toshkent, 1998.
4. Navoiy. Mezon ul-avzon. (I.Sulton matni asosida). – Toshkent: 1949.
5. S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov. Adabiyot (Birinchi qism). 8-sinf uchun darslik-majmua. – Toshkent, 2014.
6. V.Qodirov. Aruz vaznini o'qitish tajribasidan // Til va adabiyot ta'limi. 2013-yil, 1-son. 30–31-betlar.
7. L.Sharipova. Asl ruknlar // Til va adabiyot ta'limi. 2013-yil, 3-son. 31–32-betlar.
8. D.Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Toshkent, 2019.
9. Тоиров У. Становление и развитие аруза в теории в практике персидско-таджикской поэзии // АДД. – Душанбе, 1997.
10. Sharq mumtoz poetikasi. Nashrga tayyorlovchi, talqin va sharhlar muallifi f.f.d., prof. H.Boltaboyev. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopidiyasi, 2006.